“Maxam-Chirchiq” AJning
2024-yil 24-iyuldagi
378-sonli buyrug’iga
1-ilova

# “Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

Chirchiq – 2024-yil

**“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA**

| 1-bob. Umumiy qoidalar | 1-боб. Умумий қоидалар |
|---|---|
| 1. Ushbu Yo‘riqnoma “Maxam-Chirchiq” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilab beradi.<br>2. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy xatti-harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.<br>3. Jamiyat xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (keyingi o‘rinlarda – O‘qitish) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi. | 1. Ушбу Йўриқнома “Maxam-Chirchiq” АЖ (кейинги ўринларда – Жамият) ходимларининг одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш масалалари бўйича ўқитилишини ташкил қилиш бўйича тавсия ва қўлланмаларни белгилаб беради.<br>2. Ушбу Йўриқнома коррупциявий хатти-ҳаракатларнинг олдини олиш ва уларни содир қилишга хизмат қиладиган сабабларни бартараф этиш, ходимларнинг ҳуқуқий онгини ошириш ва уларни Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатларига қатъий риоя қилиш руҳида тарбиялашга қаратилган.<br>3. Жамият ходимларини одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасида ўқитиш (кейинги ўринларда – Ўқитиш) дастурлари ва материаллари Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва ушбу Йўриқномага мувофиқ ишлаб чиқилади. |
| **2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari** | **2-боб. Ўқитишнинг асосий тамойиллари** |
| 4. Jamiyat xodimlarini O‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:<br>**xolislik va ilmiylik** – odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;<br>**amaliy jihatdan qulaylik** – Jamiyat xodimlarini o‘qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;<br>**ketma-ketlilik va tizimlilik** – odob-axloq | 4. Жамият ходимларини Ўқитиш қуйидаги тамойилларга асосланади:<br>**холислик ва илмийлик** – одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ўқув материалларни тайёрлаш учун масъул шахслар уларнинг Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талаблари, халқаро стандартлар ҳамда одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш назарияси ва амалиётига доир илмий тадқиқотлар натижаларига мувофиқлигини таъминлайди;<br>**амалий жиҳатдан қулайлик** – Жамият ходимларини ўқитиш шакллари, усуллари ва материаллари амалий аҳамиятга эга бўлиши, реал вазиятларга асосланиши, шунингдек ходимлар томонидан олинган билимларни тушуниш даражаси ва уларни аниқ амалий вазифаларни ҳал этишда қўллаш имкониятини |

| | |
|---|---|
| va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi oʻquv materiallari, shuningdek Jamiyat xodimlarini oʻqitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. Oʻqitish umumiy tushunchalar va voqeliklardan juz’iylariga, oddiydan murakkabga, boshlangʻichdan mukammalga va h.k oʻtish asosida amalga oshiriladi;<br>**ommaboplik** – oʻqitish Jamiyat xodimlarining joriy bilimlari va koʻnikmalarini hisobga olish, Jamiyatning barcha xodimlari uchun tushunarli boʻlgan oʻquv materiallarini shakllantirish;<br>**differensialangan yondashuv** – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi oʻqitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qoʻshimcha ravishda maxsus oʻqitiladi;<br>**oʻqitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish** – Jamiyat oʻquv materiallarini ishlab chiqish, oʻqitish, shuningdek Jamiyat xodimlari tomonidan bilimlar oʻzlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi. | назорат қилинишини ўз ичига олиши лозим;<br>**кетма-кетлилик ва тизимлилик** – одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ўқув материаллари, шунингдек Жамият ходимларини ўқитиш тартиби изчил ва тузилмавий-мантиқий тизимни ифодалайди. Ўқитиш умумий тушунчалар ва воқеликлардан жузъийларига, оддийдан мураккабга, бошланғичдан мукаммалга ва ҳ.к ўтиш асосида амалга оширилади;<br>**оммабоплик** – ўқитиш Жамият ходимларининг жорий билимлари ва кўникмаларини ҳисобга олиш, Жамиятнинг барча ходимлари учун тушунарли бўлган ўқув материалларини шакллантириш;<br>**дифференциаланган ёндашув** – Жамиятда коррупцияга қарши ўқитиш аниқ функциялар ва тартиб-таомиллардаги коррупциявий хавф-хатар натижаларини ҳисобга олади. Коррупциявий хавф-хатарларга энг кўп мойил бўлган лавозимларни эгаллаб турган ходимлар коррупцияга қарши қўшимча равишда махсус ўқитилади;<br>**ўқитиш усуллари ва шаклларини доимий равишда такомиллаштириш** – Жамият ўқув материалларини ишлаб чиқиш, ўқитиш, шунингдек Жамият ходимлари томонидан билимлар ўзлаштирилганини текшириш вақтида техник ва илмий тараққиётнинг инновацион ютуқларидан фойдаланишга ҳаракат қилади. |
| **3-bob. Oʻqitishning ustuvor vazifalari** | **3-боб. Ўқитишнинг устувор вазифалари** |
| 5. Oʻqitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi oʻquv materiallarini shakllantirishda Jamiyat xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida oʻqitish uchun mas’ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:<br>korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Jamiyatning funksiya va tartib-taomillarida paydo boʻlish shakllari va oʻziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlari toʻgʻrisida umumiy tasavvurni shakllantirish; | 5. Ўқитиш шакллари ва усулларини аниқлашда, шунингдек одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ўқув материалларини шакллантиришда Жамият ходимларини одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасида ўқитиш учун масъул шахслар қуйидаги устувор вазифаларга таяниши лозим:<br>коррупция моҳияти, унинг жамият ҳаётининг турли соҳалари, Жамиятнинг функция ва тартиб-таомилларида пайдо бўлиш шакллари ва ўзига хос жиҳатлари, сабаблари, ижтимоий жиҳатдан хавфли ва зарарли |

| | |
|---|---|
| Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan odob-axloq va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning ahloqiy qadriyatlari va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy va soʻzsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;<br>Jamiyat xodimlarini Jamiyatda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish;<br>korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor, Jamiyatda xulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish. | оқибатлари тўғрисида умумий тасаввурни шакллантириш;<br>Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги, Жамиятнинг Коррупцияга қарши кураш сиёсати билан белгиланган одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши хулқ-атворнинг аҳлоқий қадриятлари ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатларига қатъий ва сўзсиз риоя қилишга асосланган хулқ-атвор моделини шакллантириш;<br>Жамият ходимларини Жамиятда амал қилувчи коррупцияга қарши кураш тамойиллари, талаблари ва тартиб-таомиллари билан таништириш;<br>коррупциявий хавф-хатарларни келиб чиқишига хизмат қилувчи шарт-шароитларни аниқлаш ва уларнинг олдини олиш қобилиятини шакллантириш, коррупциявий хулқ-атвор, Жамиятда хулқ-атвор қоидалари бузилишига нисбатан тоқатсизликни намоён етиш. |
| **5-bob. Oʻqitish turlari va shakllari** | **5-боб. Ўқитиш турлари ва шакллари** |
| 10. Oʻqitish quyidagi oʻquv dasturlarini koʻzda tutishi lozim:<br>barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitish;<br>Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari boʻyicha umumiy oʻqitish;<br>korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus oʻqitish;<br>Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul boʻlgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus oʻqitish.<br>11. Umumiy korrupsiyaga qarshi oʻqitish va Jamiyat tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari boʻyicha umumiy oʻqitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.<br>12. Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitish amaliy yoʻnaltirilgan boʻlishi va quyidagi yangi bilimlarga ega boʻlish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:<br>Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga | 10. Ўқитиш қуйидаги ўқув дастурларини кўзда тутиши лозим:<br>барча ходимлар учун коррупцияга қарши умумий ўқитиш;<br>Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари бўйича умумий ўқитиш;<br>коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар учун коррупцияга қарши махсус ўқитиш;<br>Жамиятда коррупцияга қарши курашиш тизимининг амал қилиши ва ривожланиши учун масъул бўлган ходимлар учун коррупцияга қарши махсус ўқитиш.<br>11. Умумий коррупцияга қарши ўқитиш ва Жамият тизими ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари бўйича умумий ўқитиш Жамиятнинг барча ходимлари учун мажбурий ҳисобланади.<br>12. Жамиятнинг барча ходимлари учун коррупцияга қарши умумий ўқитиш амалий йўналтирилган бўлиши ва қуйидаги янги билимларга ега бўлиш ёки мавжуд билимларни такрорлаш имкониятини яратиши лозим:<br>Ўзбекистон Республикасининг |

| | |
|---|---|
| qarshi qonunchiligi, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan oʻrnatilgan taʼqiqlar, cheklovlar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qoʻyilgan talablar, Jamiyat xodimlarida korrupsiyaviy xatti-harakatlari aniqlanganda xatti-harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;<br>korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar toʻqnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qoʻllash amaliyotiga doir bilimlar;<br>olingan bilimlarni qoʻllash koʻnikmalari, jumladan Jamiyatning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Jamiyatda oʻrnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qoʻllay bilish.<br>Korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yoʻriqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.<br>13. Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari boʻyicha umumiy oʻqitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun amaliy yoʻnaltirilgan boʻlishi va Jamiyatda qabul qilingan odob-axloq tamoyillari va qoidalariga doir yangi bilimlarga ega boʻlish yoki bor bilimlar takrorlanishini taʼminlashi lozim.<br>14. Jamiyat xodimlari umumiy korrupsiyaga qarshi oʻqitish va Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari natijalari boʻyicha oʻrganilgan material qanchalik oʻzlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va koʻnikmalarni amaliyotda qoʻllash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.<br>15. Jamiyat xodimlari savollarning kamida 80 foiziga toʻgʻri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitish va Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalarini muvaffaqiyatli oʻzlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga toʻgʻri javob bergan boʻlsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida topshirishi mumkin.<br>16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimlar uchun maxsus | коррупцияга қарши қонунчилиги, Жамиятнинг коррупцияга қарши курашиш масалалари, жумладан ўрнатилган таъқиқлар, чекловлар, ҳуқуқ ва мажбуриятлар, хизмат хулқ-атворига қўйилган талаблар, Жамият ходимларида коррупциявий хатти-ҳаракатлари аниқланганда хатти-ҳаракатлар кетма-кетлигига доир ички ҳужжатларини билиш;<br>коррупцияга қарши курашиш, манфаатлар тўқнашуви ва коррупцияга қарши бошқа талаблар соҳасидаги ҳуқуқни қўллаш амалиётига доир билимлар;<br>олинган билимларни қўллаш кўникмалари, жумладан Жамиятнинг турли фаолият соҳаларидаги коррупциявий хавф-хатарларни баҳолаш қобилияти, Жамиятда ўрнатилган коррупцияга қарши кураш чораларини амалиётда қўллай билиш.<br>Коррупцияга қарши умумий ўқитиш материалларига киритиш учун мазкур Йўриқномага 1-иловада келтирилган мавзулардан фойдаланиш тавсия етилади.<br>13. Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари бўйича умумий ўқитиш Жамиятнинг барча ходимлари учун амалий йўналтирилган бўлиши ва Жамиятда қабул қилинган одоб-ахлоқ тамойиллари ва қоидаларига доир янги билимларга ега бўлиш ёки бор билимлар такрорланишини таъминлаши лозим.<br>14. Жамият ходимлари умумий коррупцияга қарши ўқитиш ва Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари натижалари бўйича ўрганилган материал қанчалик ўзлаштирилгани ва тушунилганлиги ҳамда олинган билим ва кўникмаларни амалиётда қўллаш имкониятини текширишга қаратилган тест синовлари топшириши лозим.<br>15. Жамият ходимлари саволларнинг камида 80 фоизига тўғри жавоб берган тақдирда коррупцияга қарши умумий ўқитиш ва Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидаларини муваффақиятли ўзлаштирган ҳисобланади. Агар ходим саволларнинг 80 фоизидан камига тўғри жавоб берган бўлса, у такрорий тест синовларини тест топширган кундан бошлаб 5 иш куни ичида топшириши |

| | |
|---|---|
| korrupsiyaga qarshi oʻqitish korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitishdan mustaqil (qoʻshimcha) ravishda oʻtkaziladi.<br>17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimlar roʻyxati Jamiyatning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.<br>18. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus oʻqitish quyidagilar toʻgʻrisidagi maʼlumotni oʻz ichiga olishi lozim:<br>korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;<br>korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan aniq funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon boʻlish shakllari va turlari;<br>uchinchi shaxslar bilan oʻzaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan aniq funksiya va tartib-taomillarga xos boʻlgan korrupsiyaga qarshi talablar;<br>korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan aniq funksiyalarni amalga oshirishda qoʻllaniladigan qoʻshimcha talab va tartib-taomillarni oʻz ichiga oluvchi ichki hujjatlar.<br>19. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun masʼul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus oʻqitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday oʻqitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (Jamiyatlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali oʻtkaziladi.<br>20. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun masʼul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus oʻqitish Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qonunchiligidagi oʻzgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida | мумкин.<br>16. Коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар учун махсус коррупцияга қарши ўқитиш коррупцияга қарши умумий ўқитишдан мустақил (қўшимча) равишда ўтказилади.<br>17. Коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар рўйхати Жамиятнинг ҳудудий ва таркибий бўлинмаларида коррупциявий хавф-хатарларни баҳолаш услубиётига мувофиқ шакллантирилади.<br>18. Коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар учун коррупцияга қарши махсус ўқитиш қуйидагилар тўғрисидаги маълумотни ўз ичига олиши лозим:<br>коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган аниқ функция ва тартиб-таомиллардаги коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш ва минималлаштириш усуллари;<br>коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган аниқ функция ва тартиб-таомиллардаги коррупциянинг намоён бўлиш шакллари ва турлари;<br>учинчи шахслар билан ўзаро алоқа қилишда коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган аниқ функция ва тартиб-таомилларга хос бўлган коррупцияга қарши талаблар;<br>коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган аниқ функцияларни амалга оширишда қўлланиладиган қўшимча талаб ва тартиб-таомилларни ўз ичига олувчи ички ҳужжатлар.<br>19. Жамиятда коррупцияга қарши курашиш тизимининг амал қилиши ва ривожланиши учун масъул ходимларни коррупцияга қарши махсус ўқитиш йилига камида бир марта малака ошириш шаклида (семинар, тренинг ва бошқа) коррупцияга қарши кураш соҳасидаги экспертларни жалб қилиш, шунингдек бундай ўқитишларга ихтисослашган ваколатли учинчи шахслар (ташкилотлар) томонидан ташкил этиладиган тренингларда иштирок этиш орқали ўтказилади. |

| | |
|---|---|
| korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg‘or xalqaro metodikalarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi lozim.<br>21. Ushbu Yo‘riqnomaning 19-bandida ko‘rsatib o‘tilgan malaka oshirish va treninglardan o‘tish yiliga kamida 10 (o‘n) soatni o‘z ichiga olishi lozim. | 20. Жамиятда коррупцияга қарши курашиш тизимининг амал қилиши ва ривожланиши учун масъул ходимларни коррупцияга қарши махсус ўқитиш Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашиш бўйича қонунчилигидаги ўзгаришлар, коррупцияга қарши тизимларни шакллантириш ва давлат органларида коррупциянинг олдини олиш тадбирларини амалга ошириш борасидаги илғор халқаро методикаларни ўрганишни ўз ичига олиши лозим.<br>21. Ушбу Йўриқноманинг 19-бандида кўрсатиб ўтилган малака ошириш ва тренинглардан ўтиш йилига камида 10 (ўн) соатни ўз ичига олиши лозим. |
| **6-bob. O‘qitish muddatlari va davriyligi** | **6-боб. Ўқитиш муддатлари ва даврийлиги** |
| 22. O‘qitish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o‘qitish, uchinchi shaxslar bilan qo‘shma konferensiyalar, yig‘ilishlar, simpoziumlar o‘tkazilishidan qat’iy nazar amalga oshiriladi.<br>23. Jamiyat xodimlari odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o‘qitiladi.<br>24. Jamiyat xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yiliga bir martadan ko‘p o‘qitiladi:<br>xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimni egallab turgan bo‘lsa;<br>lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatiga kirsa;<br>Jamiyatda korrupsiyaviy harakatlar bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;<br>Jamiyat rahbari qaroriga muvofiq.<br>25. Jamiyatga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o‘tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o‘tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida korrupsiyaga qarshi va Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitilishi shart. | 22. Ўқитиш Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Жамиятнинг ички ҳужжатларида кўзда тутилган мажбурий малака ошириш доирасида ўқитиш, учинчи шахслар билан қўшма конференциялар, йиғилишлар, симпозиумлар ўтказилишидан қатъий назар амалга оширилади.<br>23. Жамият ходимлари одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши кураш соҳасида йилига камида бир марта ўқитилади.<br>24. Жамият ходимлари қуйидаги ҳолларда коррупцияга қарши курашиш бўйича йилига бир мартадан кўп ўқитилади:<br>ходим коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимни эгаллаб турган бўлса;<br>лавозимга тайинланганда ва ротация қилинганда, агар шахснинг янги лавозими коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар рўйхатига кирса;<br>Жамиятда коррупциявий ҳаракатлар билан боғлиқ ҳолатлар аниқланганда ёки амалга оширилаётган функция/тартиб-таомилнинг коррупциявий хавф-хатар даражаси ортганда;<br>Жамият раҳбари қарорига мувофиқ.<br>25. Жамиятга ишга қабул қилинган ёки янги лавозимга ўтказилган ходимлар ишга кирган ёки янги лавозимга ўтган вақтдан |

| | |
|---|---|
| Oʻquv sanasini belgilashda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida oʻqitishning tasdiqlangan yillik jadvali, guruhda boʻsh oʻrinlar borligi (kunduzgi oʻquv shakli uchun) va mazkur bobning 22-23 bandlarida koʻzda tutilgan oʻqitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.<br>Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy oʻqitish va Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari boʻyicha umumiy oʻqitish barcha xodimlar uchun Kadrlar tuzilmasi tomonidan yiliga bir martadan kam boʻlmagan davriylikda belgilanadi.<br>26. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng koʻp moyil boʻlgan lavozimni egallab turgani bilan bogʻliq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi oʻqitish odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida oʻqitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.<br>27. Kadrlar tuzilmalari har yili Oʻqitish jadvalini tuzadi va 31 dekabrgacha uni Jamiyat rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etadi.<br>Oʻqitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi oʻqitish muddatlari hisobga olinadi.<br>Oʻqitish jadvalida albatta oʻqitish kursi nomi, sanasi, shuningdek oʻqitish tayinlangan lavozimlar koʻrsatiladi.<br>Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Kadrlar tuzilmasining mas’ul xodimlari oʻqitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda oʻqish imkoniyati boʻlmasa (kunduzgi oʻquv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejalashtirilgan ta’til singari asosli sabablar), xodim oʻqish boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay oʻqishni boshqa sanaga koʻchirish maqsadida Kadrlar tuzilmasini ogohlantirib qoʻyishi lozim. | бошлаб 30 кун ичида коррупцияга қарши ва Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари бўйича умумий ўқитилиши шарт.<br>Ўқув санасини белгилашда одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши курашиш соҳасида ўқитишнинг тасдиқланган йиллик жадвали, гуруҳда бўш ўринлар борлиги (кундузги ўқув шакли учун) ва мазкур бобнинг 22-23 бандларида кўзда тутилган ўқитиш муддатлари ва даврийлигига амал қилиш зарурати ҳисобга олинади.<br>Кейинги коррупцияга қарши умумий ўқитиш ва Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари бўйича умумий ўқитиш барча ходимлар учун Кадрлар тузилмаси томонидан йилига бир мартадан кам бўлмаган даврийликда белгиланади.<br>26. Ходим коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимни егаллаб тургани билан боғлиқ ҳолатларда ёки ходим шундай лавозимга тайинланганда махсус коррупцияга қарши ўқитиш одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши кураш соҳасида ўқитишнинг йиллик жадвалида белгиланган муддатларда амалга оширилади.<br>27. Кадрлар тузилмалари ҳар йили Ўқитиш жадвалини тузади ва 31 декабргача уни Жамият раҳбарига тасдиқлаш учун тақдим этади.<br>Ўқитиш жадвалини тузишда ходимлар томонидан олдинги ўқитиш муддатлари ҳисобга олинади.<br>Ўқитиш жадвалида албатта ўқитиш курси номи, санаси, шунингдек ўқитиш тайинланган лавозимлар кўрсатилади.<br>Тасдиқланган жадвалга мувофиқ Кадрлар тузилмасининг масъул ходимлари ўқитиш бошланишидан 10 иш кун олдин ходимларни хабардор қилади. Белгиланган муддатда ўқиш имконияти бўлмаса (кундузги ўқув шакли учун, масалан юқори мавсумий юклама, касаллик варақаси, режалаштирилган таътил сингари асосли сабаблар), ходим ўқиш бошланишидан 5 (беш) иш кунидан кечиктирмай ўқишни бошқа санага кўчириш мақсадида Кадрлар тузилмасини огоҳлантириб қўйиши лозим. |

| | |
|---|---|
| **7-bob. O‘qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash** | **7-боб. Ўқитиш интизомини назорат қилиш ва ҳужжатларни сақлаш** |
| 28. Kadrlar tuzilmasi Jamiyat xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o‘qitilishiga doir ma’lumotlarni yig‘ib boradi va ularni har chorakda Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etadi.<br>Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o‘quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o‘quv materiallari tuzatishlar qilinishini (zarurat tug‘ilganda) ta’minlaydi.<br>29. Xodim unga tayinlangan o‘quv yoki uning natijalari bo‘yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o‘tmasa, Kadrlar tuzilmasi rahbari bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.<br>30. O‘qitish jadvali, yo‘qlama varaqalari, test natijalari, xodim o‘qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kadrlar tuzilmasida saqlanadi. | 28. Кадрлар тузилмаси Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ ва коррупцияга қарши кураш соҳасида ўқитилишига доир маълумотларни йиғиб боради ва уларни ҳар чоракда Жамиятнинг Ички назорат тузилмасига тақдим этади.<br>Жамиятнинг Ички назорат тузилмаси олинган маълумотларни таҳлил қилади (жумладан, ўқув интизоми, ходимлар учун қийинчилик туғдираётган мавзулар ва тест саволлари) ва таҳлил натижаларини коррупцияга қарши тизимнинг амал қилиши ва ривожланиши масалалари бўйича доимий ҳисоботларга киритилишини, шунингдек ўқув материаллари тузатишлар қилинишини (зарурат туғилганда) таъминлайди.<br>29. Ходим унга тайинланган ўқув ёки унинг натижалари бўйича тест синовларини белгиланган муддатларда ўтмаса, Кадрлар тузилмаси раҳбари бундай ходимнинг раҳбарини унга нисбатан тегишли қарор қабул қилиш мақсадида огоҳлантиради.<br>30. Ўқитиш жадвали, йўқлама варақалари, тест натижалари, ходим ўқиганлигини тасдиқловчи бошқа ҳужжатлар Кадрлар тузилмасида сақланади. |
| **8-bob. Yakuniy qoidalar** | **8-боб. Якуний қоидалар** |
| 31. Ushbu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlaridagi o‘zgarishlar kiritilganda, korrupsiyaga qarshi o‘qitishni tashkil etish sohasidagi ilg‘or xalqaro amaliyot o‘zgargan taqdirda qayta ko‘rib chiqiladi. Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi mazkur Yo‘riqnomaga o‘zgartirish kiritish uchun javobgar hisoblanadi.<br>32. Jamiyat xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat’iy nazar mazkur Yo‘riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. | 31. Ушбу Йўриқнома Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Жамиятнинг ички ҳужжатларидаги ўзгаришлар киритилганда, коррупцияга қарши ўқитишни ташкил етиш соҳасидаги илғор халқаро амалиёт ўзгарган тақдирда қайта кўриб чиқилади. Жамиятнинг Ички назорат тузилмаси мазкур Йўриқномага ўзгартириш киритиш учун жавобгар ҳисобланади.<br>32. Жамият ходими эгаллаб турган лавозими, иш стажи, мавқеи ва бошқа омиллардан қатъий назар мазкур Йўриқноманинг тамойиллари ва талабларига риоя қилиш учун шахсан жавобгар ҳисобланади. |

Jamiyat xodimlarining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomaga
1-ilova

**Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish umumiy o'qitishning TAXMINIY MAVZULARI**

| Mavzu | Komponentlar |
|---|---|
| Korrupsiyaning tabiati | Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari;<br>Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni;<br>Jamiyatda korrupsiyaga munosabat. |
| Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari | Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik;<br>Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar;<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro amaliyot. |
| Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari | Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi;<br>Jamiyatdagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish;<br>Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo'linmalarning majburiyat va vakolatlari;<br>Ma'muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma'muriy to'siq va byurokratizmni bartaraf etish;<br>Korrupsiyaviy xatti-harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar;<br>Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo'riqnoma, xabarlarni ko'rib chiqish tamoyillari). |
| Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar | Jamiyatdagi xavf-xatarlar va korrupsiyaviy xatti-harakatlarning asosiy turlari;<br>Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmondo'stligi belgilarini qabul qilish/taqdim etishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqalar bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Xodimlarni Jamiyatga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Binolarni ijaraga berish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>O'zaro hamkorlik va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish |

| Mavzu | Komponentlar |
|---|---|
| | bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Tanlovlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Turli hujjat turlari ekspertizasini o‘tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;<br>Jamiyat faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar. |
| Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik | Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik;<br>Korrupsiyaviy xarakatlar uchun jinoiy javobgarlik;<br>O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi. |
| Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati roli | Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida;<br>Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;<br>Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish;<br>Fuqarolik jamiyati institutlarining Jamiyat bilan o‘zaro hamkorligi. |